

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK TA'LIM BERISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Sidiqova Yulduz

Buxoro pedagogika kolleji

Tabiat bilan tanishtirish va ekologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lismu assasalarida bolalarga ekologik ta'limga tarbiya berish, tabiat, ularda atrof-muhitga nisbatan hurmat, ehtiyojkorona munosabat va unga mas'uliyat bilan qarash hissini tarbiyalash, maktabgacha yoshdagilarning ekologik tarbiyasiga oid masalalar yoritilgan, uning mazmuni haqida so'z yurutilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lism, ekologik ta'lism, atrof-muhitga munosabat, ekologik madaniyat, bolani tabiat bilan tanishtirish, bola shaxsi, tabiatni asrash, tabiatni kuzatish.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы экологического воспитания детей в дошкольных образовательных учреждениях. Рассмотрены вопросы формирования у детей дошкольного возраста любви к природе, окружающему миру и бережного отношения к дарам природы. Раскрыты цели, задачи и сущность экологического воспитания детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: дошкольное образование, экологическое образование, отношение к окружающей среде, экологическая культура, ознакомление ребенка с природой, личность ребенка, охрана природы, наблюдение природы/

Annotation: The article discusses the issues of environmental education of children in preschool educational institution. The problems of formation of preschool children's love to nature, to the world around them and to estimate and respect of the nature gifts. There is disclosed goals-objectives and nature of the environmental education of preschool age children.

Keywords: pre-school education, environmental education, respect for the environment, ecological culture, familiarize the child with nature, the child's personality, environment, nature observation.

Hozirgi kunda ta'limgiz tizimiga berilayotga e'tibor natijasida Maktabgacha ta'limgiz tizimi ham bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Ta'limgiz sohasiga zamонавий texnologiyalarning kirib kelishi bolalarning bilim olish jarayonini yanada oson va qiziqarli bo'lishini, o'zlashtirish darajasini oshishini ta'minlamoqda. Prezidentimizning "Maktabgacha ta'limgiz yo'naliishini tizimli rivojlantirish bo'yicha aniq davlat dasturlari qabul qilindi, bolalarni maktabgacha ta'limgiz bilan qamrab olish darajasi 2 barobarga oshirilib 100 foyizga yetkaziladi" -deb aytgan so'zlari bu

qaratilayotgan e'tiborning yaqqol isbotidir. Bugungi kunda insoniyatni xavf ostida qoldirayotgan hodisalardan biri ekologik vaziyat hisoblanib, jamiyatning katta tashvish uyg'otmoqda. Insonning tabiiy boyliklardan haddan tashqari oshiqcha foydalanishi oqibatida, o'rmonlar siyraklashib, o'simlik va hayvonlar turlari kamayishi, foydali qazilma boyliklari tugab borayotganligi, shuningdek, suv havzalari va atmosfera havosining ifloslanishi natijasida sayyoramizning qiyofasi o'zgarib bormoqda. Bularning barcha insonlarning tabiiy boyliklardan oqilona foydalanmasliki oqibati hisoblanadi. Shuning uchun ham ekologik tarbiya berishni mактабгача yosh davridan boshlash lozim. Ekologik bilim - bu tirik tabiatning tuzilishi, rivojlanishi, o'zgarishi, yer yuzidagi tirik jonzotlarning holati, ularning birbirlariva atrof-muhit o'rtasida bo'lib turadigan munosabatlarni, tabiiy boyliklarning son va sifatini, hajmini, xillarini hamda ularni saqlash va tejamkorlik bilan foydalanish yo'llarini o'zlashtirishdan iboratdir. Bolalarga ekolgik ta'lif va tarbiya berish ularni ilk marotaba tabiatga qadam qo'ygan vaqtan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli, oqilona ravishda foydalanishga, xalqimizning tabiatga hurmat va e'tibor bilan qaraydigan urf-odatlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarni ko'paytirish va ulardan to'g'ri foydalanish, bog'-urog'lar, gulzorlar tashkil qilishga, daraxtlarni, o'simlik va hayvonlarni asrashga, ularga ozor bermaslikka o'rgatish, bolalarning qalbida tabiatga, uni asrashga nisbatan yaxshi xislatlar uyg'otishdan iboratdir. Ekologik tarbiyaning bosh maqsadi maktabgacha yoshdag'i bolalarda atrofmuhit va uning muammolari haqida ongli munosabatn ihamda ular bo'yicha optimal yechimlar toppish to'g'risidagi bilim, ko'nikmava malakalarni shakllantirishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun bir qator vazifalarni hal qilishga to'g'ri keladi. 1. Maktabgacha yoshdag'i bolalarimizga ekologik tarbiya berishda ularning yashab turgan joyi (tabiat) va boyliklarini tejab-tergashga, ularni ongli ravishda muhofaza qilishga o'rgatish. 2. Ekologik madaniyatni shakllantirish. Bu, eng avvalo, oiladan boshlanmog'i lozim.

Maktabgacha yoshdag'i bolalarni tabiat bilan tanishtirishning quyidagi yo'llari mavjud:

- Mashg'ulotlar o'tkazish;
- Ekskursiya;
- Mehnat;
- O'yinlar;
- Kundalik hayot ishlari.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ta'lif berishning asosiy usullaridan biri ekskursiya hisoblanadi. Ekskursiya jarayonida bolalar tabiat to'g'risidagi aniq tasavvurga ko'rish, sezish, eshitish bilan idrok etish orqali ega bo'ladilar. Ekskursiya jarayonida maktabgacha yoshdag'i bolalarda tabiat, undagi qonuniyatlar to'g'risida realistik tasavvurlar hosil bo'ladi. Bu jarayon orqali

o‘rganilgan tushunchalar keyinchalik bolalar egallaydigan ilmiy bilimlarning asosini tashkil etib, maktabda o‘rganiladigan tabiiy fanlarni o‘zlashtirib olishni osonlashtiradi.

Tabiat bolani ma’naviy boyitishning bitmas-tuganmas manbaidir. Bolalar doimo u yoki bu shaklda tabiat bilan aloqada bo‘ladilar. Ularni yam-yashil o‘tloqlar, anvoysi gullar, kapalaklar, qo‘ng‘izlar, qushlar, hayvonlar, suzib yurgan bulutlar, pag‘a-pag‘a yog‘ayotgan qor uchqunlari, jilg‘a va ko‘lmaklar o‘ziga jalb qiladi. O‘simlik hamda jonzotlarning xilma-xil olami bolalarda tabiatga nisbatan jonli qiziqish va havas uyg‘otadi, ularni faoliyatga undaydi. Tabiat bilan muloqotda bo‘lish bolalarda atrof-olam haqida realistik bilim, jonli mavjudotga insoniy munosabatda bo‘lishni shakllantirishga yordam beradi. Bolani tabiat bilan tanishtirish, uni tabiatni tushunishga o‘rgatish, tabiatga

ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni tarbiyalash maktavgacha ta’lim muassasalarining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Maktavgacha yoshdagagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida tabiatga nisbatan ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni tarkib toptirishga katta e’tibor beriladi. Bolalar tabiat haqida juda bo‘limganda ilk bilimlarni egallab, o‘simliklarni o‘stirish, hayvonlarni parvarish qilishning oddiy usullarini o‘rganib, tabiatni kuzatish, uning go‘zalliklarini ko‘ra olishni bilib olgan taqdirdagina ularda tabiatga nisbatan ehtiyyotkorlik va g‘amxo‘rona munosabatda bo‘lishni tarbiyalash imkoniyati tug‘iladi. Bolalarda tabiat, jonajon o‘lka, ona Vatanga muhabbat xuddi mana shu asnoda shakllanadi. Maktavgacha yoshdagagi bolalarning ekologik tarbiyasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, xuddi mana shu yoshda bolada ma’naviy madaniyatning bir qismi hisoblangan shaxsiy ekologik madaniyatning poydevorlari shakllanadi. Bolalarning ekologik tarbiyasi – maqsad sari yo‘naltirilgan pedagogik jarayondir. Shaxsni ekologik tarbiyalash, tabiatni muhofaza qilish munosabatlariga ijobiy yondashish, tabiat bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatni amalga oshirishda ekologik muhofaza nuqtai nazaridan yo‘naltirilgan intizom, ekologik ongning yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi. Shaxsning ekologik madaniyati ekologik tarbiyaning natijasi bo‘lib hisoblanadi. Maktavgacha yoshda bolaning shaxsiy ekologik madaniyatining tarkibiy qismi – tabiatni bilish bo‘yicha bilim va uning ekoliya nuqtai nazaridan yo‘naltirilganligini kundalik turmush, turli-tuman faoliyatlarda (uy sharoiti, mehnat jarayoni va turli xil o‘yinlarda) foydalanish tashkil qiladi. Tabiatga nisbatan aqliy, estetik munosabatlar bola tomonidan o‘zlashtirilayotgan bilimlarning mazmuni bilan yaqindan bog‘liqdir. Ekologik mazmun bilan bog‘liq bo‘lgan bilim tabiatda bolalar faoliyati va ularning o‘zini tuta bila olishi, intizomini boshqarib turadi va maqsad sari yo‘naltiradi. Tabiatga bo‘lgan munosabatni shakllantirishda bolalar idrokiga yetarli darajada yetib boruvchi tabiat qonunlari bo‘yicha bilim alohida o‘rin egallaydi. Tabiatga nisbatan bo‘lgan munosabatni rivojlantirish (mashg‘ulot, ekskursiya, sayr qilish kabi hayotiy vaziyatlar) bolaning ma’naviy-ijobiy, ruhiy kechinmalariga asoslangan pedagogik jarayonni

tashkil qilish bilan yaqindan bog‘liq. Tarbiyachi bolada tirik jonzotga nisbatan achinish, uni asrab-avaylash, jonli tabiat bilan uchrashganda undan bahra olish, quvonish, taajjublanish, o‘zining qilgan ishidan mag‘rurlanish, qoniqish hissini uyg‘ota bilishi kerak. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni tabiat, yilning turli fasllarida unda ro‘y berib turadigan o‘zgarishlar bilan tanishtirib boriladi. Hosil qilingan bilimlar asosida tabiat hodisalarini aniq tushuna bilish, qiziquvchan bo‘lish, kuzata bilish, mantiqan fikr yurita olish, jamiki tirik narsaga zavq-shavq bilan qarash kabi fazilatlar shakllanib boradi. Tabiatga mehr qo‘yish, uni ehtiyyot qilib e’zozlash, tirik jonivorlar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish tabiatga qiziqish uyg‘otibgina qolmay, balki bolalarda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, tabiat boyliklarini ardoqlab, ko‘paytirib borayotgan kattalarning mehnatiga hurmat bilan qarash kabi eng yaxshi xususiyatlarni shakllantirib borishga ham yo‘l ochadi. Maktabgacha ta’lim muassasasining xona o‘simgulkari va ba’zi hayvonlar parvarishlab boqiladigan tabiat burchagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish, unga mehr-muhabbat uyg‘otishga yordam beradi. Ekologik ta’lim-tarbiya – insonning tabiatdan ongli ravishda foydalanish, psixologik axloq-odob yuzasidan xalqimizning tabiatga nisbatan e’tibor bilan qaraydigan urf-odatlari, an’analari asosida yoshlarni tarbiyalash, ular ongida tabiat, uning boyliklariga mehr-muhabbat uyg‘otish, ularni tejamkorlikka va tabiiy boyliklarni asrab-avaylashga o‘rgatishdan iborat.

Tabiat haqidagi bilimlar bolalarga o‘z vaqtida o‘rgatilmasa, ularning tabiatdan noto‘g‘ri foydalanishiga olib keladi. Bundan tashqari “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida tashkil qilinadigan 5 ta rivojlantiruvchi markazlarning biri hisoblangan “Ilm-fan va tabiat “markazi ham bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini oshirish uchun mo‘ljallangan. Ilm-fan va tabiat markazida tajriba sinov maydonchasida o‘tkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uyg‘otadi va ularni yangi ixtiolar qilishga undaydi. Bu markaz bolalarni tabiat va undagi hodisalarni bilish uchun eng katta imkoniyat markazi hamdir. Markaz faoliyati to‘g‘ri tashkil etilsa bolalar tabiat haqidagi bilimlarning 90%ini o‘zlashtiradi. Markaz nafaqat bolalarda balki pedagoglarda ham qiziqish uyg‘otadi. Hayotimiz davomida ishlataladigan narsalarni qayerdan kelganligini, ulardan nimalar olinganligi haqidagi ma’lumotlar bolalarning o‘z qo‘llari bilan urug‘larni tuvaklarga sepish orqali unga suv qo‘yishi va urug‘ unib chiqishi bola uchun juda qiziqarli holatlar sanaldi. Mashg‘ulotlar turli shakllarda olib boriladi va bularning ayrimlarida boshlang‘ich bilimlar shakllantiriladi. Buning uchun tarbiyachi kuzatish, rasmlarni ko‘rish, hikoyalar, ertaklarni o‘qishdan, multimedia vositalaridan foydalanadi. Boshqa mashg‘ulotlarda esa bolalarning bilimlar aniqlanadi, kengaytiriladi va chuqtirlashtirilgan holda o‘rgatiladi. Mashg‘ulotlarda asosan didaktik o‘yinlar, umumlashtiruvchi so‘zlardan, bolalarning tabiatdagi amalga oshiradigan mehnatidan foydalaniladi. Barcha guruhlarda mashg‘ulotlarni yanada yaxshi natija berishi va qiziqarli muhitni tashkil qilish uchun sayrlardan foydalaniladi. Didaktik

o‘yin ta’limning assosiy shakli hisoblanib, ta’limni yengil, tez va bolalar tomonidan oldindan mo‘ljallanmagan bilimlarni o‘zlashtirish shakliga aylanadi. Masalan, “Bu hayvonning nomi “Qizil kitob”ga kiritilganmi? Shu hayvонни top” o‘yini. Tarbiyachi bolalarni doira shaklida turg‘izib, hay von nomini aytadi va koptokni biror bolaga otadi. Bola koptokni ilib olib, “Qizil kitob”ga kirgan yoki kirmaganligini aytadi. Tabiat muhofazasiga doir o‘yin mazmunini ishlab chiqishda odamlaming o‘zaro munosabatlari, ularning tabiiy muhitga insonparvarlik, g‘amxo‘rlik bilan munosabatlari markaziy o‘rinda turmog‘i lozim. Shuning Bunday o‘yinlardan foydalanishda bolalarning yoshini hisobga olish, ularning yoshiga mos holda o‘yinlar ishlab chiqish lozim. Tarbiyachining bolalarga ekologik ta’lim va tarbiya berishda xalqimizning o‘ziga xos milliy tarbiyasidan, ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil qilishdan o‘rinli foydalanishi yaxshi natija beradi. Milliy tarbiyamizda suvni isrof qilmaslik bilan birga, yer, havo, tuproq ham muqaddas hisoblanadi. Bolalarga ekologik ta’lim berishda har bir bolaga 1 ta gul tuvakni parvarishlash topshirig‘ini berish ham eng samarali usullardandir. Bunda parvarishlash usullarini o‘rgatib, ularni shu gulni qanday parvarish qilyotganini nazorat qilib boriladi. Natijada bolalarda avvalambor mehr-shafqat tuyg‘usi, tabiatga muhabbat shakllanadi. Bolalar gullarining qurib qolmasligi uchun qayg‘uradi v auni parvarish qilishadi. Demak, maktabgacha yoshdag‘i bolalarda ekologik tarbiyani rivojlantirish orqali ularning tabiatga bo‘lgan mehrini, shakllantirish va kelajakda tabiiy fanlarni o‘zlashtirishi uchun poydevor yaratiladi. Bolalarga ekologik tarbiya berishda va zamonaviy usullardan foydalanish yaxshi samara beradi

Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarga tarbiya berishda unga toza kiyim kiydirish, yurish-turishining ozoda bo‘lishini uqtirib turish ilk ekologik tarbiyaning asosi bo‘ladi. Bola yashaydigan uy va uning atrofi toza, shinam va chiroyli bo‘lsa, farzand ham shunday yashashga intiladi. Ekologik ta’lim, ya’ni sog‘lom turmush tarzini tashkil qilishda tarbiyani ikki xil yo‘l bilan amalgalash muhim: birinchidan, ekologik ta’lim-tarbiya oilada ota-onalar ishtirokida; ikkinchidan, maktabgacha ta’lim muassasasi, maktab, oliy va o‘rtalik maxsus ta’limda olib borilishi lozim.

Xulosa:

Ekologik ta’lim-tarbiya maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar orasida bebaho insonparvarlik munosabatini rivojlantiradi: tabiatning barcha ob’ektlariga nisbatan qiziqishini uyg‘otadi, atrof-muhitning shart-sharoitini o‘rganish, unga g‘amxo‘rlik qilish malakalarini rivojlantiradi. Mamlakatimiz uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida, jumladan, maktabgacha ta’lim tizimida ekologik ta’lim-tarbiyaga katta e’tibor qaratilgan.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 2020 yil 22 dekabrdagi 802-sonli qaroriga 1-ilova Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat Standarti.
2. “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi Toshkent – 2018 y.
3. Sh.M. Mirziyoyev-“Yangi O‘zbekiston Strategiyasi”-Toshkent-2021.
4. Kayumova.N.M.-“ Maktabgacha pedagogika.” T.: TDPU -2013 y. O‘quv qo‘llanma.
5. Sodiqova Sh.A.- “Maktabgacha pedagogika.” – T, 2018
- 6.. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat dasturlari. – T., 2018. 5.
7. Ismoilov A., Ahadov R. Ekologik ta’lim-tarbiya. – T.: «O‘qituvchi», 1997.
- 8.. Grigoryans A.G., Gafurova U. Bolalar bog‘chasida ekologik tarbiya. – T.: «O‘qituvchi», 2002.
9. Umarova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish metodlar.